



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI LUG‘AT BOYLIGINI OSHIRISHDA O‘YINNING AHAMIYATI

Nurmuhamedova Laylo Sharopovna

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada alohida yordamga muhtoj bolalarning lug‘at boyligini oshirishda o‘yin faoliyatining pedagogik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda nutq rivojlanishidagi muammolar, xususan, lug‘at zahirasining cheklanganligi va nutqiy muloqotdagi qiyinchiliklar tahlil qilingan. Shuningdek, syujetli-rolli va didaktik o‘yinlarning bolalar nutqini rivojlantirishdagi samaradorligi asoslab berilgan. O‘yin jarayonida bolalarning yangi so‘zlarni o‘zlashtirishi, ularni nutqda qo‘llashi hamda muloqotga kirishish faolligining ortishi kuzatilgan. Tadqiqot natijalari o‘yin faoliyati nutqni rivojlantirishning tabiiy va samarali vositasi ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: alohida yordamga muhtoj bolalar, lug‘at boyligi, nutq rivojlanishi, o‘yin faoliyati, syujetli-rolli o‘yinlar, didaktik o‘yinlar, korreksion pedagogika, muloqot.

ЗНАЧЕНИЕ ИГРЫ В РАСШИРЕНИИ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА У ДЕТЕЙ, НУЖДАЮЩИХСЯ В ОСОБОЙ ПОДДЕРЖКЕ

Нурмухамедова Лайло Шароповна

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, профессор

Аннотация

В данной статье рассматривается педагогическое значение игровой деятельности в развитии словарного запаса у детей с особыми образовательными потребностями. Проанализированы проблемы речевого развития, в частности ограниченность словарного запаса и трудности речевого общения. Обоснована эффективность сюжетно-ролевых и дидактических игр в развитии речи детей. В процессе игры наблюдается активное усвоение новых слов, их использование в речи и повышение коммуникативной активности. Результаты исследования показывают, что игровая деятельность является естественным и эффективным средством развития речи.

Ключевые слова: дети с особыми образовательными потребностями, словарный запас, развитие речи, игровая деятельность, сюжетно-ролевые игры, дидактические игры, коррекционная педагогика, коммуникация.

THE IMPORTANCE OF PLAY IN INCREASING VOCABULARY IN CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS

Nurmukhamedova Laylo Sharopovna

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Professor

Abstract

This article examines the pedagogical importance of play activities in expanding the vocabulary of children with special educational needs. The study analyzes speech development challenges, particularly limited vocabulary and difficulties in communication. The effectiveness of role-playing and didactic games in speech development is substantiated. During play activities, children actively acquire new words, use them in speech, and increase their communicative engagement. The results show that play activity is a natural and effective tool for speech development.

Keywords: children with special educational needs, vocabulary development, speech development, play activity, role-playing games, didactic games, corrective pedagogy, communication.

Alohida yordamga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasi bugungi kunda pedagogika va maxsus ta'lim tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda inklyuziv ta'lim tamoyillarining keng joriy etilishi har bir bolaning individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, nutq rivoji, ayniqsa, lug‘at boyligini oshirish masalasi alohida e'tiborni talab qiladi. Chunki nutq — bu nafaqat muloqot vositasi, balki bolaning tafakkuri, ijtimoiy moslashuvi va shaxs

sifatida shakllanishining muhim omilidir.

Alohida yordamga muhtoj bolalarda nutq rivojlanishi ko'pincha sekin, notekis va o'ziga xos xususiyatlar asosida kechadi. Ularning lug'at boyligi cheklangan bo'lib, so'zlarni to'g'ri qo'llash, fikrni izchil bayon etish, voqealar o'rtasidagi bog'liqlikni anglashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu esa ularning nafaqat o'quv faoliyatiga, balki kundalik hayotdagi muloqot jarayonlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun maktabgacha yosh davridayoq bunday bolalar bilan maqsadli va tizimli korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda samarali metod va vositalardan foydalanish muhim bo'lib, ular orasida o'yin faoliyati alohida o'rin egallaydi. O'yin bolalar uchun tabiiy, erkin va qiziqarli faoliyat turi bo'lib, u orqali bola atrof-muhitni anglaydi, ijtimoiy tajriba orttiradi hamda nutqiy faoliyatini faollashtiradi. Ayniqsa, syujetli-rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar va harakatli o'yinlar yordamida bolalarning lug'at boyligini oshirish, yangi so'zlarni o'zlashtirish va ularni nutqda faol qo'llash imkoniyatlari kengayadi. O'yin jarayonida bola so'zlarni eshitadi, takrorlaydi, mazmunini anglaydi va turli vaziyatlarda qo'llashni o'rganadi. Bu esa passiv lug'atni faol lug'atga aylantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, o'yin davomida bolalarning diqqat, xotira, tafakkur kabi psixik jarayonlari rivojlanib, bu nutqiy faoliyatning takomillashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Pedagog tomonidan to'g'ri tashkil etilgan o'yin faoliyati bolalarda muloqotga kirishish ehtiyojini kuchaytiradi, nutqiy faollikni oshiradi hamda ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtiradi. Shu bois alohida yordamga muhtoj bolalarning lug'at boyligini oshirishda o'yinning nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari va samarali usullarini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada aynan o'yin faoliyati orqali nutqni rivojlantirish, xususan, lug'at boyligini kengaytirishning o'ziga xos jihatlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishida "aholini ijtimoiy himoya qilish, nogironligi bo'lgan shaxslar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash"ni kuchaytirishga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida belgilangan vazifalarga muvofiq, yosh avlod, xususan, eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning og'zaki nutqini muloqot quroli sifatida rivojlantirish orqali ularni ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlod sifatida tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish uchun aniq maqsadga qaratilgan keng ko'lamdagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini shu yo'lda safarbar etish lozimligi bilan ifodalanadi.

Ko'rinadiki, til va nutq inson ma'naviy kamolotining muhim omillaridan sanaladi. Shunday ekan, maktabgacha tarbiya yoshidayoq yordamga muhtoj bo'lgan bolalar nutqini to'g'ri shakllantirish ustida ishlash hayot talabidir. Yordamga muhtoj bo'lgan bolalarda ham intellektual, ham shaxs rivojlanishining yetishmovchiliklari bilan chambarchas bog'langan nutqning o'ziga xos buzilishlari aksariyat hollarda ko'p kuzatiladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi yordamga muhtoj bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ish tizimida nutqiy rivojlanishdagi nuqsonlarni korreksiyalashga katta ahamiyat beriladi.

Yordamga muhtoj bo'lgan bolaning nutqni egallashdagi xususiyatlarini, intellektual nuqsonli bolalar nutqining shakllanishini o'rganish, ushbu bolalar bilan maktabgacha yoshda, ya'ni nutqning eng sezitiv (jadal) rivojlanishi davrida ish olib borish mazmuni va metodlarini, yo'nalishlarini aniqlash alohida ahamiyat va dolzarflik kasb etadi. Chunki haligacha intellekti buzilgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'rganishga qaratilgan fundamental izlanishlar olib borilmagan. Mavjud pedagogik, maxsus psixologik va metodik adabiyotlarda ushbu toifadagi bolalar nutqi rivojlanishining boshlang'ich bosqichlari haqida yo'l-yo'lakay keltirilgan ma'lumotlarnigina ko'rish mumkin.

Yordamga muhtoj bo'lgan bolalar o'z taassurotlarini tinglovchilarga bildirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning hikoyalari hamma vaqt ham tinglovchilarga tushunarli bo'lavermaydi. Bunga sabab yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning keng monolog tarzida so'zlashni juda bo'sh egallaganliklaridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bog'langan nutq juda sekin egallana boshlaydi. Me'yorida rivojlanayotgan bolalar ko'pincha o'z taassurotlarini boshqalarga hikoya qilib berishga intiladilar, ko'rganlari haqida ma'noli, tushunarli va mantiqiy hikoya qilib berish, o'z fikrini to'g'ri tuzilgan jumlar bilan ifoda etish imkonini beradigan og'zaki nutq shaklini egallashga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ham maktabgacha bo'lgan davrdan boshlab yordamchi

maktabda o'qish, aqliy jihatdan kamchiliklarini bartaraf qilish, keyinchalik esa ijtimoiy hayotga va qo'llaridan keladigan ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash uchun zarur bo'ladigan bu murakkab so'zlashish malakasini egallashlari zarur. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yordamga muhtoj bo'lgan bolalarda dastlabki so'zlarning kechikib hosil bo'lishi (dastlabki so'zlar 3–4 va hatto 5 yoshlarda paydo bo'ladi), so'z birikmalarini egallash davrining sekin va qiyinchilik bilan kechishi, so'zlardan gaplarni tuzish uzoq vaqt talab etishi, nutqiy ijodiyotda mustaqillikning yetishmasligi, nutqiy faollik darajasining pastligi, nutqiy muloqot kambag'alligi kuzatiladi.

Yordamga muhtoj bo'lgan bolalar bir nechta gaplarni o'zaro biriktirib, fikrni mantiqiy izchillikda bayon qilishga, sabab va oqibatni ketma-ketlikda bildirishga, bayon qilinayotgan hodisadagi muhim xususiyatlarni ajratishga qiynaladilar. Yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning barcha toifalari uchun nutqiy faoliyatning buzilishi umumiy xususiyat hisoblanadi. Nutqiy o'sishdagi yetishmovchilik yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning atrofdagilar bilan muloqotini cheklab qo'yadi. Bu, o'z navbatida, bilish, so'z bilan uyg'unlashgan axborot olishni ma'lum ma'noda o'sishdan to'xtatib qo'yadi.

Yordamga muhtoj bo'lgan bolalar nutqini o'stirish qiyin kechsa-da, ta'lim-tarbiya jarayonida nutq hamisha diqqat markazida turishi lozim. Shuningdek, nutqni o'stirish jarayonida o'yinlar orqali bolaning nutqini o'stiramiz. O'yin bolalarning kelajagidagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O'yin yosh avlodni mehnatga tayyorlaydi. Bolalar o'yinlarini bunday tushuntirish birinchi marta K.D. Ushinskiy tomonidan ta'riflab berilgan edi. U o'z asarlarida bolalar o'yinlarining mazmuni, ularning hayotdan olgan tasavvurlari bilan birga, ular shaxsining shakllanishiga ta'sir etadi, deb yozadi.

Jan Itar (1775–1838), Eduard Segen (1812–1880), Dekroli (1871–1932), Mariya Montessori (1870–1952), Y.K. Gracheva (1866–1934), A.N. Grabrovlar (1855–1943) o'z faoliyatlarida syujetli-rolli o'yinlardan keng foydalanganlar va syujetli-rolli o'yinlarning kar bolalarga ta'lim-tarbiya berishda korreksion ahamiyatga ega muhim vazifasini ta'kidlab o'tgan edilar. Bolalar o'yinlarining nazariyasiga E.A. Flerino, E.I. Tixeyeva, E.A. Parkin kabi olimlar 20–30-yillarda asos soldilar. Keyinchalik R.Y. Mextian, Abramovich, F.I. Fratkina, X.M. Aksarina, A.P. Usova, D.V. Mendjevskaya, T.A. Markova va boshqalar o'z hissalarini qo'shdilar.

L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, D.B. Elkonin, A.V. Zaparojets bolalar o'yinlarini ilk yoshdan kuzatib borish natijasida uni harakatga keltiruvchi sabablar, rivojlantirish qonuniyatlari, har xil yosh bosqichlarida bolalar o'yinlarining o'ziga xos tomonlari, mazmuni va tuzilishini o'rganish zarurligini ta'kidlaydilar. Ulug' rus oligofrenopedagog va oligofrenopsixologlari A.N. Graborov va G.Y. Troshinlar kar bolalarga ta'lim-tarbiya berishda syujetli-rolli o'yinlarning ahamiyatiga katta baho beradilar. Ular o'yinlarni bolalarning ko'rsatkichi deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, o'yin birinchi navbatda tashqi sezgilar, ko'rish sezgisi, teri sezgisi va eshitish sezgisiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va o'yin vaqtida barcha sezgilar mashq qilinadi. Shuningdek, o'yinlar yordamida xotira, fikrlash, tasavvur qilish rivojlantirib boriladi: "Hech bir qobiliyat yo'qki, u o'yin davomida mashq qilinmasin, chiniqmasin, barcha yuqori sezgilar o'zining rivoji uchun o'yin vaqtida qulay sharoitga ega bo'ladi", — deb yozgan edi A.N. Graborov.

O'yin bolalar uchun haqiqiy hayotdir. A.P. Usova shunday degan edi: "Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish ularni tarbiyalash demakdir. Bolalarning tarbiyalanishining o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki o'z hayoti bilan yashaydi". E.I. Tixeyeva o'yinga bolalar bog'chasida pedagogik jarayonni tashkil qilishning shakllaridan biri, shu bilan birga, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning muhim vositalaridan biri sifatida qarar edi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda alohida yordamga muhtoj bolalarning lug'at boyligini oshirish jarayonida o'yin faoliyatining samaradorligini o'rganishga qaratilgan ilmiy-metodik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda nazariy va amaliy metodlar uyg'unligi asos qilib olindi. Nazariy jihatdan pedagogik, psixologik va maxsus adabiyotlar tahlil qilindi, o'yin faoliyatining nutq rivojiga ta'siri bo'yicha ilmiy qarashlar o'rganildi. Amaliy bosqichda esa kuzatish, suhbat, eksperiment va diagnostik metodlardan foydalanildi. Bolalar bilan olib borilgan mashg'ulotlar jarayonida syujetli-rolli va didaktik o'yinlar asosiy vosita sifatida tanlandi. Shuningdek, bolalarning mashg'ulotdan oldingi va keyingi nutqiy rivojlanish darajasi solishtirildi, lug'at boyligidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Olingan natijalar sifat va qisman miqdoriy tahlil asosida umumlashtirildi.

Natijalar. O'yinning shakllari, uning mazmuni bola yashaydigan muhitiga, o'yin kechadigan vaziyatga, ushbu vaziyatni tashkil etadigan va unda bolalarning harakat qilishiga yordam beradigan pedagogikaning o'rni bilan belgilanadi. E.I. Tixeyeva ta'limiy o'yinlarning barcha turlarini rivojlantirishni tavsiya etgan edi. Syujetli-rolli o'yinlarning rolini ochishda uning xizmati alohidadir. U haqli ravishda

syujetli-rolli o'yinlar bolalarning juda xilma-xil qobiliyatlarini, uning idrokini, nutqini, diqqatini rivojlantiradi, deb hisoblaydi. U tarbiyachilarning syujetli-rolli o'yinida tutadigan o'ziga xos o'rnini belgilab beradi. U o'yinda bolalarni boshqaradi, uning mazmuni va qoidalari bilan tanishtiradi. Hozirgacha bolalar bog'chalarida E.I. Tixeyeva ishlab chiqqan syujetli-rolli o'yinlardan foydalanib kelinmoqda. O'yin usullari bolalar diqqatini to'plash, ular idrokini faollashtirish, bilimlarini to'liqroq o'zlashtirib olish imkoniyatini yaratadi.

O'yin bilan mehnatning umumiy va farqli tomoni ham bor. Katta guruhlarda bolalar bor o'yinchoqlar bilangina o'ynab qolmay, balki yetishmagan o'yinchoqni tabiiy material yoki karton qog'ozlardan o'zlariga yasab oladilar. Bolalar mehnati qiziqarli bo'lishi uchun uni ko'proq o'yin tarzida o'tkazish talab etiladi. Bolalar o'z o'yinlarida kattalar mehnatini aks ettirishlari, ularda bu mehnatga ko'nikmalar shakllantirib borilayotganligini aks ettiradilar. O'yin bolalar yoshiga xos va mos bo'lishi kerak.

Y.A. Kamenskiy, E.A. Polkov o'z asarlarida bolalar o'yiniga jiddiy e'tibor berilganligini ko'ramiz. Ular bolalar o'yinini e'zozlang, haqiqiy bolamehnatsevarlarni tarbiyalashda u sizning eng yaxshi hamkoringizdir, degan edi. Bu fikr bilan taniqli psixologlar bolalarning ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishda ularni o'yin faoliyatidan cheklamaslikni eslatib o'tadilar. Mashhur pedagoglar va psixologlar bolalar o'yinini ta'lim-tarbiya ishida muhim ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, ularning har tomonlama o'sishida, bilimlarni egallashida keng imkoniyat tug'diruvchi ahamiyatini ochib berganligini ko'ramiz.

Ayniqsa, bu borada A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy, D.B. Elkonin, V.V. Davidov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarini ta'kidlab o'tish mumkin. O'yinning ta'lim va tarbiyaviy ishlarida keng qo'llanishi haqidagi fikrlari bizga asos bo'lib xizmat qiladi. Syujetli-rolli o'yinlardan asosan bolalarning aqliy faoliyatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi vosita sifatida foydalanish bilan bir qatorda nutqini o'stirish, atrof-muhit va tabiat bilan tanishtirishda, bolalarni ekologik tarbiyasida ham keng qo'llaniladi. Bolalarga bilim berishda o'rganiladigan yangi bilimlarni yaxshilab o'zlashtirib olish uchun bolalar bilan turli amaliy mashqlar o'tkaziladi. O'yin shaklida o'tkaziladigan mashqlar esa bolalarning diqqatini o'ziga jalb qiladi, qiziqtiradi. Demak, syujetli-rolli o'yinlar bolalarning har tomonlama chuqur va keng bilim olishlarida, ularning nutqlarini o'stirishda keng foydalaniladigan ta'limiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

E.A. Arkin bolalarning o'yin faoliyati haqida shunday deydi: "O'yin bola faoliyatining birdan bir formasi bo'lib, uning faoliyatini qo'lga olishga hamda turli hollarda muvaffaq bo'ladi. O'yin bola bajara olmaydigan talablarni aslo qo'ymaydi, shu bilan birga, o'yin bolalarning bir oz zo'r berishi esa bolaning hamisha quvnoqligi, tetikligi, birdamligi bilan bog'liq. Birdamlik va quvnoqlik esa sog'liqning garovidir".

Tadqiqot jarayonida alohida yordamga muhtoj bolalarning lug'at boyligini oshirishda o'yin faoliyatining samaradorligi amaliy mashg'ulotlar asosida o'rganildi. Mashg'ulotlar davomida syujetli-rolli va didaktik o'yinlardan tizimli foydalanish bolalarning nutqiy faolligini oshirishga, yangi so'zlarni o'zlashtirish va ularni muloqotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Kuzatuv natijalariga ko'ra, bolalarda passiv lug'atning faollashuvi, so'z birikmalarini tuzish ko'nikmasining shakllanishi hamda qisqa gaplar orqali fikr bildirish qobiliyati sezilarli darajada yaxshilandi. Ayniqsa, o'yin jarayonida bolalar yangi so'zlarni tezroq eslab qolishi va ularni mustaqil nutqda qo'llashga intilishi kuzatildi.

Quyidagi jadvalda tadqiqotgacha va tadqiqotdan keyingi nutqiy rivojlanish ko'rsatkichlari solishtiriladi:

Ko'rsatkichlar	Tadqiqotdan oldin	Tadqiqotdan keyin
Faol lug'at boyligi (so'zlar soni)	20–30 so'z	45–60 so'z
So'z birikmalarini tuzish	Juda cheklangan	Qisman shakllangan
Qisqa gaplar tuzish	1–2 so'zli	3–5 so'zli
Muloqotga kirishish faolligi	Past	O'rtacha–yuqori
O'yin davomida nutqiy faollik	Kam	Faol

Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'yin faoliyati orqali olib borilgan korreksion-pedagogik ishlar bolalarning lug'at boyligini kengaytirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, muntazam tashkil etilgan o'yin mashg'ulotlari nutqiy faollikni oshirish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari alohida yordamga muhtoj bolalarning lug'at boyligini oshirishda o'yin faoliyatining samarali korreksion vosita ekanligini yaqqol ko'rsatdi. Olingan natijalar pedagogik va psixologik adabiyotlarda ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan uyg'unlashadi. Xususan, o'yin faoliyatining

bola rivojlanishida yetakchi o'rin tutishi haqidagi g'oyalar L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, D.B. Elkonin kabi olimlar tomonidan asoslab berilgan bo'lib, ushbu tadqiqot natijalari ham bu fikrlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'yin jarayonida bola tabiiy va erkin muhitda nutqiy faoliyatga kirishadi, bu esa yangi so'zlarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, syujetli-rolli o'yinlar bolalarda kommunikativ ehtiyojni kuchaytirib, so'zlarni maqsadli va kontekstga mos qo'llash imkonini beradi. Didaktik o'yinlar esa lug'atni tizimli kengaytirish, so'z ma'nolarini mustahkamlash va eslab qolish jarayonini yengillashtiradi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida shunday holat kuzatildiki, bolalarda o'yin davomida nutqiy faollikning ortishi ularning faqat lug'at boyligiga emas, balki fikrlash jarayoniga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola o'yin vaziyatida fikrni ifodalash, savollarga javob berish va tengdoshlari bilan muloqot qilish orqali nutqiy kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Biroq ayrim bolalarda yangi so'zlarni mustahkamlash jarayoni sekin kechishi individual yondashuv zarurligini ko'rsatdi. Bu esa o'yinlarni tashkil etishda bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish, mashg'ulotlarni muntazam va tizimli olib borish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Muhokama natijalari o'yin faoliyatining alohida yordamga muhtoj bolalar nutqini rivojlantirishda, xususan, lug'at boyligini oshirishda eng samarali pedagogik vositalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa. Alohida yordamga muhtoj bolalarning lug'at boyligini oshirishda o'yin faoliyati muhim korreksion-pedagogik vosita ekanligi tadqiqot davomida o'z tasdig'ini topdi. O'yin jarayoni bolalarda nutqiy faollikni kuchaytiradi, yangi so'zlarni o'zlashtirishni yengillashtiradi hamda ularni amaliy muloqotda qo'llash imkoniyatini kengaytiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, syujetli-rolli va didaktik o'yinlar bolalarning passiv lug'atini faollashtirish, so'z birikmalari va sodda gaplar tuzish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali hisoblanadi. O'yin faoliyati nafaqat nutqni rivojlantiradi, balki diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarini ham faollashtirib, bolaning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'yinlar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda muloqotga kirishish ehtiyojini oshirishi va ijtimoiy faollikni kuchaytirishi aniqlandi. Biroq har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olish, o'yinlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish hamda muntazamlikni ta'minlash samaradorlikni yanada oshiradi. O'yin faoliyati alohida yordamga muhtoj bolalarning nutqini rivojlantirish, xususan, lug'at boyligini kengaytirishda eng samarali va tabiiy pedagogik vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Нуркельдиева Д. А. Методы определения речевой готовности умственно отсталых детей к обучению в школе: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Т.: ТГПИУ им. Низами, 2001.
4. Nurmuhamedova L. Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari: ped. fan. nomz. dis. avtoref. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
5. Nurmuhamedova L. Sh. Aqliy yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ma'naviyatini shakllantirishda oilaning ta'siri. – Toshkent, 2005.
6. Mo'minova L., Amirsaidova Sh. va boshqalar. Maxsus psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013.
7. Po'latova P., Nurmuhamedova L., Amirsaidova Sh. Maxsus pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2014.
8. Пулатова П. М. Коррекционно-педагогическая работа с газетным материалом в 5 классе вспомогательной школы на уроках внеклассного чтения: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 1993.
9. Смирнова А. Н. Коррекционно-воспитательная работа учителя вспомогательной школы. – М., 1995.
10. Raxmonova V. S. Maxsus pedagogika (defektologiya mutaxassisligiga kirish): o'quv qo'llanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004.
11. Шоумаров Г. Б. Социально-психологические проблемы молодой семьи выпускников специальной школы для детей с задержкой психического развития: автореф. дис. ... докт. псих. наук. – Т., 1990.
12. Shoumarov Sh. Oila psixologiyasi: akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2008.
13. Sharq tafakkuri hazinasidan. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.